

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-6/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Тахрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Абдуллаев Рашид Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, к/х.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Ўразбоев Файрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д., проф.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	
<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	
<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>	
<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>	
<i>Рўзиев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№6/2 (90), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 210 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ИҚТИСОДИЁТ ФАҲЛАРИ

Abduvoxidova M.A., Abdvohidova G.A. Mehnat bozorida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari	5
G'anibayev I.Sh. Avtomobil transporti korxonalari faoliyatini boshqarishda auditning zaruriyati va mohiyati	7
Ibrogimov Sh.X. Namangan viloyatida sanoat tarmog'ini rivojlantirish tendensiyalari	9
Kurpayanidi K.I. Banking instruments in the system of institutional support for export activities of business entities	12
Mamasoliev G'M. Aholining samarali bandligini ta'minlashda aholi ro'yxati ma'lumotlaridan foydalanish	14
Maxmudova N.J. Korxonalarda riskni boshqarishning ilmiy–nazariy jihatlarini	16
Mullayeva M.A., Khakimova S.I. The role of education in human capital development	19
Nasretdinova F. Nodavlat-notijorat tashkilotlarida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar	22
Qurolova F.T. Importance and features of electronic trade development in the contribution to digital economy in Uzbekistan	26
Saidmamatov O. Sustainable ecotourism development in the Aral Sea region of Uzbekistan: TOWS analysis	28
Yuldasheva M.M. "Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzeli" unitar korxonasining iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili	30
Абдикаримова З. Давлат-хусусий шерикчилик муносабатларининг асосий шакллари ва моделлари	33
Авезова Ш.М. Применение бенчмаркинга в совершенствовании системы управления трудовыми ресурсами на предприятии	37
Алибекова С.Л., Шарифов Ш.С., Абдусаматов У.Ғ. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштиришда тиббий суғуртани хориж тажрибаси	41
Алимова М.Т., Мамаризоев Ж.И. Туризм соҳасида ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш йўналишлари	45
Атамуратова Н.Б. Мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида рақамли иқтисодиётнинг моҳияти ва роли	48
Гадоев С.Ж. Тижорат банклари миқозларининг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолашни такомиллаштириш	55
Жумаев Ж.Б. Ўзбекистонда янги ерларни ўзлаштириш: ютуқлар ва муаммолар	59
Жуманиёзов Р.П. Минтақада саноат корхоналари рақобатбардошлигини диагностика қилиш услубияти ва моделларини такомиллаштириш	62
Ибадуллаев Э.Б. Ёшлар ва болалар рекреацион туризм хизматларининг ривожланиш хусусиятлари	66
Искандаров Б.А. Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда қурилиш маҳсулотлари корхоналарида персоналнинг бошқаришнинг долзарб масалалари	68
Қалмуратов Б.С., Муратбаева А.Н., Режепмуратов Ш.М. Минтақада ижтимоий-иқтисодий томондан ривожланишида хизмат кўрсатишнинг ўрни	72
Мараимова У.И. Аҳолининг иш билан бандлигини самарали амалга ошириш йўллари	75
Мирзаев А.Т. Қурилиш соҳаси кластерларида логистик жараёнларни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	77
Насимов Д.А., Абдувоҳидова М.А. Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда хотин-қизларнинг меҳнатини ташкил этишнинг инновацион шакллари	81
Насырова Л.А. Развитие цифровизации в образовательной сфере Узбекистана	85
Пирекеев Ж.Х. Кичик бизнес ва тadbirkorlikни шаклланиши ва ривожланишининг объектив зарурлиги	87
Ражаббоев И. Воситачилик тadbirkorlikнинг ўзига хос таснифий хусусиятлари	91
Режапов Х.Х. Ўзбекистонда олий таълим хизматларини ривожлантириш йўналишлари	95
Хакимов А.А. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий тараққиёт ва уни қўллаб-қувватлаш борасида тadbirlar йўналишлари	98
Хакимова Ш.С. Ўзбекистонда электрэнергетика саноати ривожиди гидроэнергетиканинг ўрни	100
Ҳаққулов Ф.Ф. Мамлакатимизда таълим хизматлари ва меҳнат бозори интеграцияси асосида кадрлар тайёрлашни бошқариш муаммолари ва ечимлари	103
Ҳусанбоев С.Ё. Агротуризм фаолиятининг шаклланиши ва ривожланиш хусусиятлари	106
Шарифов Ш.С., Абдурахимов У.М. Аҳоли турмуш фаровонлигини оширишнинг назарий асослари	110
Юлдашева Н.А. Инновацион фаолиятни бошқариш асосида саноат корхоналарининг барқарор ривожланиш стратегиясини шакллантириш масалалари	113

Юсупова Ж.К. Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида инновацион бошқаришнинг ташкилий-механизмларининг назарий жиҳатлари	116
ТАРИХ ФАНЛАРИ	
Boltayev B.B. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyatidagi muassasa muzeylarining vujudga kelishi va rivojlanish tendensiyasi	120
Do'stov A. O'rta Osiyoda o'lchovshunoslik ilmining tarixiy taraqqiyoti	122
Nayitov Sh.A., Arziqulov J.X. Turkistonda quritilgan mevalar ko'rgazmasi va olovli meva quritgich(sushilkalar)lar xususida (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	124
Khaydarov Z.U., Rustamaliyev M.H. "Views on the muslim" renaissance and steps for the third renaissance	125
Teshayev A. Gelmut Kol: Germaniya birlashuvidagi metin iroda	129
Toshov K.T. Suxxon vohasiga ikkinchi jahon urushi yillarida sanoat korxonalari va aholini evakuatsiya qilinishi	130
Utayeva F.X. To'qimachilik sanoatini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash	133
Xasanova N.I., Bozrov Q.D., Uralova A.D. Buxoro xonligi va Boburiylar sulolasi diplomatiyasi	135
Абдиримов Б.М. Мўғулларга асир тушган Жалолиддин Мангубердининг Қизи - Туркон тақдири	137
Азаматова Г.Б. Ташки меҳнат миграцияси агентлигининг ўзбекистон республикасида самарали миграция сиёсатини юритишдаги ўрни ва аҳамияти	140
Аминов Х.Б. Қуйи Амударё минтақасида сайёҳлик истикболлари	142
Анёзов Р.Б. Хоразм савдо марказларининг марказий осие савдо тизимида тутган ўрни	144
Аширов В.И. Мустақиллик йилларида Навоий вилоятининг дипломатик алоқалари	146
Бабажанов С.Б. Жамоатчилик назорати тизимини юзага келтирувчи омиллар	148
Камалова З.А. Великий шёлковый путь в эпоху древности	151
Комолов Д.П. Ўзбекистон Республикаси суд тизимида амалга оширилган туб ўзгаришлар	153
Қобилов Н.С. "Сахиҳу Бухорий"нинг ёзилиш тарихи ва услуби	159
Қудратов Ш.Ё. Бухоро амирлиги тасарруфидаги бозорларнинг савдо сотиқдаги ўрни ва роли	161
Мадалимов Т.А. "Ригведа" да рух тушунчаси ва унинг таснифи	163
Мамиров О. Уструшонанинг зооморф топинчлари	166
Маткаримова Н.М., Хайруллаева Д.А. Хоразм ўзбеклари оилавий маросимлари мавзусининг XX аср тарихий тадқиқотларида акс этиши	169
Мингноров А.Т. Ер-сув ислохотининг даврий матбуотда ёритилиши	171
Мирсоатова С.Т. Сазагон маданияти, унинг ўрганилиши ва тарихшунослиги масалалари	173
Пирниязова Т.О. Қорақалпоғистонда илм-фан ва маданият соҳасининг ривожланиши	175
Рахимов К.А. Марғиёнанинг бронза давридаги хонани иситиш қурилма ва воситаларини ўрганилиши ва улар билан боғлиқ муаммолар	178
Рахманова Ю. XX аср бошларида Хива ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари	183
Розимова Ё.Ю. Хорижий мамлакатлардаги ҳарбий таълим тизимининг қиёсий таҳлили	185
Савриев Ж.Ф. Навоий вилоятидаги тарихий ёдгорликларнинг аҳамияти ва таъмирланишининг асосий йўналишлари	187
Сатимов Б.М. Оролбўйида ҳарбий ишнинг шаклланиши ва ривожланиши босқичлари	189
Саттаров А. Фарғона водийси аҳолисини янги ўзлаштирилган ерларга кўчирилишида кадрлар масаласи ва унинг ҳал этилиши	192
Султанова Г.О. Анъанавий Хива ёғоч ўймакорлиги санъати	193
Таниқулов Ж.А. Замонавий дунёда – жамоатчилик фикрини шакллантирувчи медиа ахборот эволюцияси	197
Туребеков М.Т., Алимбетов А.К. Гавр Қалъа ёдгорлиги турар жойлари	201
Турекеев Қ.Ж. Қорақалпоқларда чақалоқ туғилиши ва парваришига оид урф-одатларда мажик тасаввурлар	204
Яқубова Д.Т. Сурхон воҳасида 1946-1970 йилларда пахта яккахокимлиги сиёсатининг амалга оширилиши ва унинг натижалари	207

saqlash bo'limiga vrach bo'lib ishga joylashgan bo'lsa, Kiev universiteti talabasi R.B Lermontov esa «Leninskaya znamya» gazetasida korrektor bo'lib faoliyat yurita boshladi. Evakuatsiya kilingan aholi viloyat aholisi tomonidan juda iliq kutib olindi, ularga turli-tuman yordamlar ko'rsatildi va boshpana ajratib berildi. Jumladan, 1283 nafar Polsha fuqarosi Sariosiyo tumaniga o'rnatilgan bo'lsa, 575 kishi esa Denov tumaniga ko'chirib keltirildi 548 kishi esa Sho'rchi tumanidan boshpana topdi. Mehri daryo sho'rchiliklar ko'chirib keltirilgan jabr-diydalarga yordam tariqasida 2615 so'm pul ajratdi, 59 kishiga esa moddiy yordam uyushtirildi. Shuningdek, 81 ta turli xil uy-ro'zgor buyumlari, jumladan, 23 ta ko'rpa, 20 dona ko'yulak, 18 dona shim, ikki juft etik, bir juft tuflari va boshqa turli mahsulotlar bilan insonparvarlik yordamini ko'rsatdilar.

Darhaqiqat, fashistlar Germaniyasi ustidan g'alabani ta'minlashda o'zbek xalqining ham nihoyatda katta hissasi bor. Mash'um urush yillarida o'zbek xalqi ham fashizmga qarshi kurashda mislsiz jasorat ko'rsatdi. Front ortidagi tinimsiz mehnat, hisobsiz yo'qotishlar cheksiz azob va uqubatlar xalqimizning sabr-bardoshini, chidam va matonatini yana bir bor sinovdan o'tkazdi. Front chiziqdarida olib borilgan beomon janglarda mardlik va shijoat ko'rsatgan o'zbek jangchilarining jasorati so'nmas qahramonlikka aylandi.

Xalqimizning mehmondo'stligi, qalbi kengligi, sahovatligi, mehrirdaryoligi va bolajon xalq ekanligi ikkinchi jahon urushi yillarida yana bir bor sinovdan o'tdi. Ana shu og'ir sinovli yillarda voha mehnatkashlari ham ko'chirib keltirilgan aholiga har tomonlama yordam berib, ular bilan dasturxonidagi eng oxirgi nonini ham baham ko'rdi. Butun qalb qo'rini va yurak mehrini yetim bolalar tarbiyasiga sarfladi, ana shu yillarda surxondaryolik qalbi keng mehribon insonlar ming-minglab xasta dillarga malham bo'lib, ularga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan madadkor bo'ldi va asrlar davomida ajdodlaridan meros bo'lib kelayotgan mehmondo'stlik, mehribonlik kabi xislatlarga sodiq ekanligini isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoevning 9 may munosabati bilan so'zlagan nutqi. 2020 yil 9 may.
2. Ulug' Vatan urushi: savollar va javoblar. Toshkent, 1987, 72-bet.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 80-81-betlar.
4. Tursunov S. va boshqa. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Toshkent, 1991. 19- bet.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 228-ish, 357-358-varaqlar.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 228-ish, 360-361-varaqlar.
7. Lenin bayrog'i gazetasi. 1985 yil 4-may soni.

UO'K 93/94

TO'QIMACHILIK SANOATINI MALAKALI MUTAXASSISLAR BILAN TA'MINLASH

F.X. Utayeva, katta o'qituvchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Buxoroda to'qimachilik sanoatini rivojlanishi uchun malakali kadrlar juda ro'p kerak bo'lgan. Kadrlarga bo'lgan ehtiyoj texnika instituti texnikumlar va maxsus kurslarni tashkil etilishiga sabab bo'lgan. Maqolada to'qimachilik sanoati, mutaxassis kadrlar va ish unumini oshirish uchun madaniy tadbirlarning o'rni ahamiyatli ekanligi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Amaliyot, to'qimachilik, maxsus kurslar, kutubxona, sport, yotoqxona, tadbirlar, musobaqalar, yutuqlar.*

Аннотация. *Развитие текстильной промышленности Бухары требовало большого количества квалифицированных кадров. Потребность в кадрах привела к созданию техникумов и спецкурсов при Технологическом институте. В статье подчеркивается важность культурных мероприятий для текстильной отрасли, профессионального персонала и производительности труда.*

Ключевые слова: *Стажировки, текстиль, спецкурсы, библиотека, спорт, общезнание, мероприятия, конкурсы, достижения*

Abstract. *The development of the textile industry in Bukhara required a large number of qualified personnel. The need for personnel led to the creation of technical schools and special courses at the Institute of Technology. The article highlights the importance of cultural events for the textile industry, professional staff and labor productivity.*

Key words: *Internships, textiles, special courses, library, sports, community, events, competitions, achievements*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida gaz, neft, kimyo, engil sanoat, energitika, mashinasozlik, sanoat materiallarini qayta ishlash va tayyorlash, uy-joy kombinati, ip-yigiruv kombinati va boshqa sanoat tarmolarini tez taraqqiy qila borishi, shuningdek viloyat xalq xo'jaligi taraqqiyoti rejalarida to'qimachilik sanoatni rivojlantirish uchun mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni talab darajasiga etkazish uchun Buxoroda texnika instituti texnikumlar va maxsus kurslar tashkil etildi.

Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi shiddat bilan ketayotgan bir vaqtda malakali kadrlarni tayyorlash uchun 1972 yilda Buxoro shahrida 100-sonli texnikum kombinat negizida ochildi. 1979 yilgi hisobotlarga ko'ra ta'lim muassasasi o'z faoliyati davomida 2370 dan ortiq yosh malakali kadrlarni tayyorlab bergan, ular Buxoro ip-gazlama kombinatida amaliyotlarni o'tab, texnikumni tamomlagach shu yerda ish faoliyatlarini davom ettirganlar.

Texnikumga maktabni 8-10-sinflarni bitirgan qizlar, yaqin Sovet Armiyasi safidan qaytgan yigitlar, shuningdek, 5,6,7,9-sinflarni tugatgan 16 yoshga to'lgan qizlar qabul qilingan. Talabalarga 70 rubl midorida stipendiya to'langan turar joy bilan ham ta'minlangan.[1]

1979 yillarda KPSS MK Bosh kotibi SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi Raisi L.I.Brejnev 17-iyun - Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan tibbiyot xodimlarining mehnatiga yuksak ahamiyat berish kerakligini belgilab bergan

va "Ijtimoiy vazifalar orasida xalqimiz sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishdan muhimroq narsa yo'q deb ta'kidlab o'tgan. Albatta bu 1979 yilda Buxoro to'qimachilik kombinatining tibbiy-sanitariya qismida moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash, fabrika ishchi va xizmatchilariga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishiga turtki bo'lgan. To'qimachilik kombinati yonida tashkil etilgan tibbiyot bo'limida tibbiy yordam sifati, diagnostika va davolash usullari yaxshilandi, travmatologiya, tomoq-burun, tug'ruq va ginekologiya bo'limlarida yangi murakkab jarrohlik turlarini amalga oshirish uchun mutaxassislar taklif qilina boshlandi.

To'qimachilik kombinatining tibbiy-sanitariya qismida tibbiyot xodimlari har yili turli yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida to'qimachilik kombinati ishchilariga profilaktik tuzatish ishlari olib borilgan. Uchta ishlab chiqarish brigadasi korxonada ikki smenada ish olib borganlar. Nazorat qilish uchun tibbiy-muhandislik guruhi tuzilgan bo'lib, guruhda 3 nafar shifokor va 10 nafar hamshira to'qimachilik ishchilarining farzandlari salomatligiga ma'sul qilib birlashtirib qo'yilgan. To'qimachilik kombinatining tibbiyot bo'limida 50 nafarga yaqin shifokor va 180 nafar o'rta tibbiyot xodimi ishlagan. Tibbiyot bo'limi tarkibida ayollar maslahat bo'limi tashkil etilgan shifoxona 300 o'ringa mo'ljallangan.

Ko'pgina tibbiyot xodimlari o'zlarining mehnatlari bilan hurmat qozonganlar. Jumladan: Z.K.Shamurodova, Sh.R.Umarova, K.R.Ro'ziev, S.D.Rahmonovlar va boshqalar.[2]

Toshkent Politehnika institutining Buxoroda kechki umumtexnika fakulteti o'z faoliyatini 1959- yildan 1972-yilgacha davom ettirib, 1972-yildan boshlab Toshkent Politehnika institutining filialiga va 1978- yildan Buxoro oziq - ovqat va engil sanoat texnologiya institutiga aylantirilgan.

1972 yil Buxoroda yangi texnik oliy o'quv yurtini barpo etishda otaliq tashkilotlar qatorida Buxoro to'qimachilik kombinati rabariyati A.Fozilov rabarligida kombinatdan 37368,74 so'mlik mabla ajratildi. Bu vaqtda kombinatning o'zida ham qurilish ishlari davom etayotgan edi. Jumladan Kombinat qurilishi direktori S.B.Baratov 1972-1973 yillar dunyo mamlakatlarining boy tajribalari asosida kombinat qurilishini marraga etkazdi va korxonaning 1-yigiruv tikuv fabrikasini foydalanishga topshiridi, kombinat ish faoliyatini boshlab yubordi. [3]

Buxoro ip-yigiruv kombinati direktori-U.U.Umarbekov tomonidan 1974 yil 21 fevralda Yengil sanoat vazirligiga kombinat ishchilarini avtobus bilan ta'minlash uchun buyurtma qilingan.

Buyurtma asosida O'zbekiston SSR Avtomobil transporti vazirligining Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasi ertalab va kechki smenalarda ishchilarni zavodga uzluksiz yetkazib berishni tashkil etadi, shuningdek, shahar va zavod o'rtasida doimiy avtobus qatnovini ta'minlaydi.

Ish unumdorligini oshirish uchun O'zSSR Savdo vazirligi va Buxoro viloyat qo'mitasi quyidagilarni bildirgan va bular kombinatda tezda ishchilar xizmati uchun ishga tushirilgan. Jumladan: to'qimachilik ishchilarining oshxonasi va yotoqxonalar, yotoqxonada sartaroshlar, poyabzal, kiyim-kechak, soat ta'mirlash ustaxonalari, kimyoviy tozalash va dorixonalarni ochish.

Korxonada Buxoro viloyat qo'mitasi tomonidan pochta va matbaa bo'limi tashkil etilgan bo'lib turli viloyatdan kelganlar uchun qulayliklar yaratilgan.

1974 yil 1 sentyabr, 1974-1975 yillarda loyihalashtirilgan yozgi va qishki kenoteatrlar qurish uchun loyiha-smeta hujjatlari tayyorlangan.

To'qimachilik sanoatida ish unumini oshirish uchun ishlayotgan mutaxassislar ma'naviy tadbirlarga ham jalb etilgan. Korxonada kutubxona va sport to'g'araklari faoliyati yaxshi olib borilgan.

Buxoro ip-yigiruv kombinatida 1975 yil 14 iyul holatiga ko'ra ishchilar soni 3497 kishi, shundan 2051 nafari komsomol a'zosi, 1055 nafari ayollarni tashkil qilgan. 1975 yil 17 iyul direktor Axmedov G'ulom Axmedovich partiya va komsomol tashkilotchilariga korxonada ishchilarini ishdan tashqari vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ma'naviy tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgan. Ma'naviy tadbirlarni o'tkazish Partiya tashkilotchisi - Negmatova S.N., komsomol tashkilotchisi- Maxmudova M, kombinat raisi - Tsoriyev B.T., To'qimachilik ishlab chiqarish sohasi bo'yicha qo'mita a'zosi - K.V. Lazarevalarga yuklatilgan.

Sexlar o'rtasida 60 dan ortiq kishi turli sport turlari bo'yicha sport toifalariga ega bo'lgan. 1974 yilda sport va jismoniy tarbiya ishlarini bo'yicha fabrikalar o'rtasida eng yaxshi ko'rsatgichga ega bo'lgan. Buxoro shahrida o'tkazilgan bellashuvda kombinat 6 o'rinni egallashgan.

Sexlar orasida musobaqalar tashkil etilgan, ammo 2 ta voleybol maydonchasidan tashqari musobaqalar tashkil etadigan sharoitlar bo'lmagan shuning uchun 1976 yilda kombinatda yoshlar tashabbusini inobatga olib sport inshootlarini qurishni tezlashtirish rejalashtirilgan. [4]

Kombinat raisi B. Tsoriyev, Partiya tahkiloti kotibi - R.Nigmatovlar tomonidan oldindan rejalar tuzilib olindi. Jumladan, 1975 yil korxonada ishchilarini kutubxonaning sektoriga obuna qilish va tadbirlar o'tkazish. Quyidagi tadbirlar o'tkazish rejalashtirilgan va o'tkazilgan. Jumladan:

- V.I.Leninning tug'ilgan kuni - 1975 yil 22 aprel
- N.A.Moloxovning adabiy kechasi - 1975 yil 17 iyul
- Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni 1975 yil 31 iyul
- 1975-yil 5-dekabr Konstitutsiya qabul qilingan kunga bag'ishlangan konsert
- O'zSSR tashkil topganiga 51 yil 1975 yil 27 oktyabr.

Rejalar kombinat kutubxonasida tuzilgan. [5]

1976 yildagi ommaviy sport tadbirlarining kalendar rejasida keltirilishicha,

1976 yil kutubxonada kitob o'qiganlar: ishchilar – 102 ta, xodimlar – 66 ta, talabalar – 141 taga yetgan. [6] Bundan ko'rinib turibdiki, mutaxassislar o'z sohalari bo'yich kitoblar o'qib o'z tajribalarini orttirganlar.

1974 yil 1 sentyabr, 1974-1975 yillarda loyihalashtirilgan yozgi va qishki kenoteatrlar qurish uchun loyiha hujjatlarini tayyorlangan va 1975 yil to'qimachilik hududida 300 o'rinli qurilish uchun mablag' ajratilgan. Buxoro trolleybus idorasi 50 ta vagon va trolleybus yo'nalishlari uchun 1976 yilgi reja asosida ishlarni muddatdan oldin bararish uchun ishlar boshlab yuborilgan. Kombinat ishchilarining yotoqxonasi 10 ming so'mlik mebel bilan ta'minlandi, qurilish-montaj ishlari uchun 0,8 million so'm, 1974 yilda zavod hududida maktab o'quvchilar uchun 1104 o'rinli maktab qurish uchun 64 million so'm ajratilgan.

Vazir F. Xodjaev 1974 yil. kombinatni ishchilar bilan ta'minlash [7] da Buxoro viloyat qo'mitasi va shahar ijroiya qo'mitasiga topshiriq bilan murojaat qilgan. Murojaatda yoshlar ayniqsa, maktab bitiruvchilar o'rtasida, ishlab chiqarish va viloyatda ularni doimiy ishga jalb etish maqsadida keng tushuntirish ishlari olib borilishi ta'kidlangan. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish To'qimachilik va trikotaj sanoati bosh boshqarmasi – I.Sh.Shodibekova zimmasiga yuklatilgan. Bu qilinadigan ishlarning samarasi Buxoro to'qimachilik kombinatiga ishchilarni jalb qilinishi va kerak bo'lsa malakali kadrlar qilish uchun kurslarga va tashkil etilgan oliy dargohlarga yo'llanmalar berish.

To'qimachilik kombinatini qurishda maxsus mutaxasis quruvchilarlarga hamda malakali kadrlarlarga etiyov va talab ko'payganligi Toshkent Politehnika institutining filiali bo'lib kelgan institut 1978 yil sentyabrdan boshlab institut mustaqil ish yurita boshladi. Institutning rektori qilib O'zbekiston Respublikasi FA akademigi Nusrat A'zamovich Parpiyev tayinlangan. Buxoro viloyatini to'qimachilik sanoatini turli sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar bilan ta'minlashda bu institutning o'rni ahamiyatlidir. Buxoro viloyati uchun to'qimachilik sohasi bo'yicha yetarli kadrlarni yetkazib berishda jonbozlik ko'rsatda boshlagan.

Institutda To'qimachilik va engil sanoat fakulteti 1979-yilda tashkil etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini takomillashtirish uchun amaliyotlar tajribali ustozlar boshchiligida Buxoro ip-gazlama kombinatida amalga oshirildi. [8] 1979-yildan "To'quvchilik", "Yigiruv" mutaxassislari bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlagan bo'lsa, 1982 yildan boshlab "Tikuvchilik masulotlar texnologiyasi", "Yengil sanoat mashina va apparatlari" mutaxassislari bo'yicha to'qimachilik sanoatini turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlashga kirishildi. To'quvchilik sohalarini rivojlantirish uchun Moskva Davlat Dizayn va texnologiya universiteti va Ukraina institutlarida chop etilgan o'quv adabiyotlari va jurnallari bilan fakultet va kafedralarning fondini boyitdilar.

To'qimachilik sohalar bo'yicha mamlakatimizning ko'plab ishlab chiqarish korxonalarini bilan aloqada bo'lib, shu korxonalar uchun malakali kadrlar tayyorlab kelganlar va hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Jumladan: Toshkentdagi "Yulduz", "Qizil tong", "O'zbekiston", "Qunduz" Qarshidagi "Sanam", Samarqand shahridagi "8-mart", Urganchdagi "Tikuvchi", Buxorodagi "B.Nashbandiy", "Nigora", "Zardo'z", "Buxoroteks", "Buxoro paxta sanoati hududiy hissadorlik birlashmasi" "Qobulteks", "Qorako'lteks", "Buxoro ipagi", Olot, G'ijduvon, Vobkent tumanlaridagi to'qimachilik korxonalarini. "Tabiiy va kimyoviy tolalarni yigirish" va "To'quvchilik" mutaxassislarini tayyorlash fakultetiga O.M.Yoriyev 1979-1985 yillar davomida dekan vazifasini bajarib, fakultet va kafedra o'qituvchilari to'qimachilik sohalar bo'yicha mamlakatimizning ko'plab ishlab chiqarish korxonalarini uchun yetuk kadrlarni etkazib berishda ilm va salohiyatlarini ayamaganlar 1979 yildan boshlab institutda o'qitishning uch shakli: kunduzgi, kechki, sirtqi o'qish tartiblari joriy etilib, o'quv jarayonlari olib borilgan.

Buxoro ip-yigiruv kombinatini mutaxassislar bilan ta'minlash uchun 1983 yil "To'qimachilik masulotlari texnologiyasi" kafedrasini tashkil etilib va kafedra mudiri dostent R.G.Alieev rahbarligida talabalar Moskva shahridagi "Bolshevikcha" tikuvchilik fabrikasida yuqori saviyadagi amaliyotni o'tadilar. Toshkent, Moskva, Leningrad, Minsk, Vilnyus, Riga, Xarkov, Gorkiy va boshqa shaharlardagi to'qimachilik sanoati korxonalarini bilan shartnomalar tuzib bitiruv amaliyotlarini o'tash yo'lga qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroda o'lgan to'qimachilik sanoatini qurilishi xalqimizni dunyoga tanitdi, ish o'rinlari tashkil etildi, o'qimishli va malakali kadrlar soni ko'paydi. Juda katta bunyodkorlik ishlari olib borildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бухарское городское училище №100 // Текстильщик Бухары, 1979 г 9-июня –стр 4
2. X.Рахимов (заместитель начальника медсанчаст текстильного комбината по лечебной работе) // За здоровье текстильщиков, Текстильщик Бухары, 1979 г 9-июня –стр 4
3. Субхидин Баротов Меҳнат яратган мўъжиза (Бухоро тўқув фабрикаси қурилиш тарихидан лавҳалар) "Бухоро вилоят босмахонаси", МЧЖ-нашриёти 2018 йил, - 8 б
4. Buxoro viloyat davlat arxivi 1236 fond, 1-ro'yxat, 121- yig'ma jild, 44- varaq
5. BVDA 1236 fond, 1- ro'yxat, 121- yig'ma jild, 44- varaq
6. BVDA 1236 fond, 1- ro'yxat, 121- yig'ma jild, 47- varaq
7. BVDA 1236 fond, 1- ro'yxat, 36- yig'ma jild, 95- varaq
8. Xojiyev M.T., Mastonov K.X. "30-yil Buxoro va YESTI o'tmishi, buguni, ertasi", "O'zbekiston", 2008.-5 b.

UO'K 930

BUXORO XONLIGI VA BOBURIYLAR SULOLASI DIPLOMATIYASI

N.I. Xasanova, PhD, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
Q.D. Bozorov, talaba, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
A.D. Uralova, talaba, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro xonligi va Boburiylar sulolasining tashqi diplomatik va savdo aloqalari haqida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Demokratik jamiyat qurish yo'lida shu vaqtgacha bosib o'tilgan tarixiy bosqichlarni tahlil etish asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Jamiyat va davlatchilik tarixini yanada chuqurroq

anglash va undan to'g'ri xulosa chiqarish mustaqil davlat barpo etish yo'lida asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Hind elchilari, A.Jenkinson, Erketi shahri, Jung'orlar, savdo-sotiq, mevalar, o'simliklar.

Аннотация. В данной статье представлены некоторые сведения о внешнеполитических и торговых связях Бухарского ханства и династии Бабуридов. Одной из основных задач является анализ исторических этапов, пройденных к настоящему времени в построении демократического общества. Более глубокое понимание истории общества и государственности и извлечение из нее правильных выводов может стать одним из ключевых факторов построения независимого государства.

Ключевые слова: Бухарское ханство, индийские послы, А. Дженкинсон, Эрketи, джунгары, торговля, фрукты, растения.

Abstract. This article provides some information on the foreign diplomatic and trade relations of the Bukhara Khanate and the Baburid dynasty. One of the main tasks is to analyze the historical stages that have been traversed so far in building a democratic society. A deeper understanding of the history of society and statehood and drawing the right conclusions from it can be one of the key factors in building an independent state.

Key words: Bukhara Khanate, Indian Ambassadors, A. Jenkinson, Erketi, Dzungars, trade, fruits, plants.

Kirish. O'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to'plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XX asrning oxiriga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston tarixini, xususan o'zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shu bois ham, so'nggi yillarda O'zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo'lib bormoqda. Ta'kidlash joizki, o'zbek xonliklaridan biri bo'lgan Buxoro xonligi – Buburiylar tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo'lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o'rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Buxoro xonligi va Boburiylar sulolasi haqidagi ma'lumotlarni (jumladan, XVIII asrda O'rta Osiyoning qo'shni Sharq mamlakatlari bilan aloqalarini) o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ularda iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tahlili, savdo yo'llarini o'rganishga qaratilgan sa'y-harakatlar, qaysi davlatlardan qanday tovarlar va qancha miqdorda olib kelinganligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida ta'kidlanganidek "qo'shni Eron va Shayboniylar davlatidan kelgan elchilar sharafiga ziyofat uyushtirildi. Ularga turli-tuman sovg'a-salomlar hadya etildi. Har uchchala mamlakat o'rtasida do'stlik va o'zaro savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatish haqida shartnoma imzolandi".

Hindistondagi Boburiylar saltanati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'rnatilishi Bobur va Ko'chkunchixonlar nomi bilan bog'liq. Ko'chkunchixon hukmronligi davrida Buxoro xonligi Boburiylar davlatini tan oldi hamda u bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'rnatdi.

Ko'chkunchixonning elchisi xon tomonidan Boburga Movarounnahrning mashhur mayizlaridan, subxoni o'riklaridan va boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga yuklangan sovg'a-salomlari qatorida tortiq qilingan 200 ta yaxshi ot olib kelganligi manbalarda qayd etilgan.

Natijalar: O'z navbatida, Bobur ham Buxoro xonligiga elchilar yuborgan. Bu ikki davlat o'rtasidagi savdo va elchilik munosabatlari Boburning o'g'li Humoyun hukmronligi yillarida ham davom etgan. Bunday munosabatlar keyingi shayboniy va boburiy hukmdorlar davrida yanada kengaygan. Chunonchi, Buxoro xoni Abdullaxon II safaviylarga qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intilgan. Abdullaxon davrida Buxoro xonligining Hindiston, Xitoy, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. 1572–1578-yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarning elchilari bo'lgan.. Buxorolik elchilar o'z hukmdorining sovg'a-salomlari va maktubini olib borganlar. Bir qancha vaqtdan so'ng yana javob sovg'a-salomlari va maktubini olib, o'z vatanlariga qaytganlar.

Abdullaxon kuchli bilim sohibi va teran fikrlaydigan buyuk shaxs bo'lgan deya olishimiz mumkin. Negaki u butun ilmiy salohiyati bilan davlatni qudratini kengaytirishga olgan. Abdullaxon hududini kengaytirishga davom etayotgan bir paytda u e'tiborini Qandahorda qaratadi. Lekin bu paytda Akbarning qudrati Abdullaxonning rejalariga imkon bermaydi. Natijada Abdullaxon Akbarning ittifoqiga suyanib safaviylarning yerlarini bosib olishga harakat qila boshlaydi. Natijada har ikkala davlat o'rtasida diplomatik munosabatlarning kuchayishiga olib keladi. Hind tarixchisi Ramish Chandira Varma XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni ikki davrga bo'lib tushintiradi: 1) 1555 – 1589 yillar Abdullaxonning Hindistonga agresiv siyosat olib borganligi; 2) 1588 yildan boshlab Akbarning o'limiga qadar (1605 yil bo'lib, Hindistonning O'rta Osiyoga hisbatan zo'ravonlik siyosatini butunlay yoritib berishga harakat qiladi. Abdullaxon Eron hukmdori Abbos I ga qarshi harakatlar boshlaydi. Nizomiddinovning ma'lumotlariga qaraganda, "O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari kurashish uchun ittifoqi bo'lgan davlat Hindiston bilan diplomatik munosabatlari 1572– yil Dehliga Oltamishni elchi qilib yuborishidan boshlanadi. Elchi Abdullaxonning har ikkala davlat o'rtasida davom etib kelayotgan do'stlik aloqalarining kuchaytirish haqidagi maktubini topshiradi. Akbarshoh Oltamishni Gujaratni bosib olgandan keyin qabul qilgan, tarixchi Varmaning ma'lumotiga ko'ra elchi Akbarshohga safaviylarning yerlarini bo'lib